

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF CRITICAL THINKING DEVELOPMENT IN THE
MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Ergashev Ulug'bek Adxamovich
Farg'ona davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar va sport kafedrası" o'qituvchisi

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, kognitiv faollik, metakognitiv nazorat, refleksiya, muammoli o'qitish, savol-javob va muhokama, hamkorlikda o'rganish, simulyatsiya va rol o'yinlari, pedagogik psixologiya, ta'limni modernizatsiya qilish.

Ключевые слова: критическое мышление, когнитивная активность, метакогнитивный контроль, рефлексия, проблемное обучение, вопрос-ответ и обсуждение, совместное обучение, симуляция и ролевые игры, педагогическая психология, модернизация образования.

Keywords: critical thinking, cognitive activity, metacognitive control, reflection, problem-based learning, question-answer and discussion, collaborative learning, simulation and role-playing, pedagogical psychology, education modernization.

Annotatsiya: mazkur maqolada globalashuv va raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida zamonaviy ta'lim tizimida shaxsda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlash pedagogik psixologiyada shaxsning yuqori darajadagi kognitiv faoliyatini ifodalovchi integrativ jarayon sifatida talqin etilishi, maqsadli tashkil etilgan ta'lim muhiti va psixologik mexanizmlar bilan bog'liqligi, savol-javob va muhokama, muammoli o'qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik, shuningdek, simulyatsiya va rol o'yinlariga asoslangan psixologik mexanizmlar, ushbu mexanizmlarning ta'lim oluvchilarda metakognitiv nazorat, analitik va refleksiv tafakkur hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование компетенций критического мышления у личности в современной системе образования в условиях глобализации и расширения цифрового информационного пространства, трактовка критического мышления в педагогической психологии как интегративного процесса, представляющего собой высокий уровень когнитивной деятельности личности, связь с целенаправленно организованной образовательной средой и психологическими механизмами, вопросы и ответы и обсуждение, проблемное обучение, рефлексия, общение и сотрудничество, а также психологические механизмы, основанные на симуляции и ролевых играх, метакогнитивный контроль, аналитическое и рефлексивное мышление и проблемы этих механизмов у обучающихся.

Annotation: This article examines the formation of critical thinking competencies in an individual in the modern education system in the context of globalization and the expansion of the digital information space, the interpretation of critical thinking in pedagogical psychology as an integrative

process representing a high level of cognitive activity of the individual, its connection with a purposefully organized educational environment and psychological mechanisms, questions and answers and discussion, problem-based learning, reflection, communication and cooperation, as well as psychological mechanisms based on simulation and role-playing, metacognitive control, analytical and reflexive thinking, and the problems of these mechanisms in students.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, axborot makonining kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida ta'lim tizimining asosiy maqsadi shaxsda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil yuritish va tanqidiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir [7, 45; 4, 67–69]. Zamonaviy ta'lim bosqichida tayyor bilimlarni yodlashdan ko'ra ularni anglab, baholash va ijodkorlik bilan qayta ishlash ko'nikmalari 21-asr talablariga mos ravishda ustuvorlik kasb etmoqda [4, 67–69]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik psixologiyada tanqidiy fikrlash shaxsning yuqori kognitiv faolligini ifodalovchi markaziy komponent sifatida qabul qilinadi [11, 34–36].

Tanqidiy fikrlash bexosdan yuzaga kelmaydi; u maqsadli tashkil etilgan ta'lim jarayoni va metodologik vositalar orqali chuqur rivojlanadi [10, 210–212; 20, 58–61]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, savol-javob va muhokama, muammoli o'qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik hamda simulyatsiya va rol o'yinlariga asoslangan pedagogik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, bu yondashuvlar o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirib, tafakkurning yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarini rag'batlantiradi [9, 89–92; 17, 264–266].

O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy ko'nikmalarni shakllantirish davlat ta'lim siyosatining asosiy vazifalari sifatida qayd etilgan [1, 3-modda]. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030"da zamonaviy fikrlovchi, raqobatbardosh va intellektual salohiyatga ega shaxsni tayyorlash ta'lim tizimining strategik maqsadi sifatida belgilangan [2, IV bob]. Prezident farmonlarida ta'limni modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni mustahkamlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan [2, 17–21]. Ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida tan olinmoqda [4, 67–69].

Pedagogik amaliyotda mazkur mexanizmlarning ilmiy asosda tatbiq etilishi o'quvchilarda metakognitiv nazorat, analitik va refleksiv yondashuv, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda dalillarga tayangan fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga sharoit yaratadi [11, 34–36; 9, 89–92]. Shu sababli tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini tizimli o'rganish, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida qaraladi [20, 58–61; 17, 264–266].

Mazkur bo'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar jahon va MDH olimlarining ilmiy qarashlari asosida kompleks tahlil qilinadi hamda ularning pedagogik amaliyotdagi ahamiyati yoritib beriladi [9, 210–212; 23, 57–60]. Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta'lim tizimida shaxs nafaqat bilim egallovchi, balki turli axborot manbalarini tanqidiy baholay oladigan, mustaqil va asosli qarorlarini asoslab bera oladigan subyekt sifatida shakllanishi lozim [7, 45; 4, 67–69]. Globallashuv va raqamli axborot oqimining ortishi natijasida o'quvchilar

turli, ko‘pincha qarama-qarshi ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni mantiqiy saralash va xulosalashga majbur bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlashni shaxsning asosiy intellektual kompetensiyasi sifatida rivojlantirish zaruratini yanada oshiradi [11, 34–36; 9, 89–92].

Shu bilan birga, pedagogik-psixologik tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash ko‘pincha umumiy didaktik ko‘rsatmalar doirasida yoritilib, uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi psixologik vositalar — metakognitiv nazorat, refleksiya, analitik operatsiyalar va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonlari yetarli darajada tizimli va chuqur o‘rganilmagan [21, 210–212; 19, 58–61]. Ayniqsa, ushbu mexanizmlarning ta‘lim jarayonida qaysi sharoitlarda va qaysi pedagogik metodlar orqali samarali shakllanishi masalasi ilmiy asosli tahlilni talab qiladi [8, 34–36]. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim siyosatida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish davlat darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda bu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan asoslash va ta‘lim jarayoniga moslashtirish hanz dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda [1, 3-modda; 2, IV bob]. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini kompleks o‘rganish ta‘lim mazmunini modernizatsiya qilish, pedagogik texnologiyalar samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi [4, 89–92]. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish zamonaviy ta‘lim tizimi ehtiyojlari, davlat ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda pedagogik amaliyot talablariga bevosita bog‘liq bo‘lib, mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi [7, 45; 18, 67–69]. Hozirgi ta‘lim sharoitida shaxsning mustaqil fikrlay olish qobiliyati, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va asoslangan qarorlar qabul qilishi ta‘lim samaradorligini aniqlovchi muhim ko‘rsatkichga aylanmoqda [8, 34–36; 25, 264–266].

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik psixologiyada tanqidiy fikrlash shaxsning yuqori darajadagi kognitiv faoliyati sifatida talqin etiladi. U faqat bilimlarni yodlash bilan cheklanmay, balki ularni chuqur tahlil qilish, baholash, qayta tuzish va muqobil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [21, 210–212; 19, 58–61]. Bu murakkab kognitiv jarayonlar pedagogik amaliyotda maxsus tashkil etilgan ta‘lim muhiti va aniq psixologik mexanizmlar orqali izchil shakllantiriladi [8, 34–36].

Ushbu jarayon pedagogik amaliyotda bir qator psixologik vositalar orqali shakllantiriladi. Psixologik mexanizmlarning birinchisi — “Savol-javob va muhokama mexanizmi”, u tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi asosiy psixologik instrumentlardan biri sifatida qaraladi. B. Blumning kognitiv taksonomiyasiga binoan, yuqori darajadagi savollar (tahlil, sintez, baholash) o‘quvchilarda murakkab tafakkur operatsiyalarini ishga tushiradi. Ayniqsa, “Nega?”, “Qanday qilib?”, “Muqobil yechimlar bormi?” kabi savollar metakognitiv jarayonlarni, ya‘ni shaxsning o‘z fikrlash faoliyatini kuzatish va boshqarishini rag‘batlantiradi [18, 102–105].

J.Dyui ta‘lim jarayonida muhokama va savol berishni reflektiv fikrlashning asosiy elementi deb hisoblab, aynan muammoli savollar orqali shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanishini ta‘kidlaydi [6, 58–61]. MDH olimi L.S. Vygotskiy esa ijtimoiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan savol-javoblar “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirib, tafakkurning yuqori darajalarini rivojlantirishini ilmiy asos bilan ko‘rsatgan [19, 264–266].

O‘zbekistonlik pedagog-olimlar tadqiqotlarida ham savol-javob texnologiyalarining talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosalar chiqarish va munozara madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati alohida qayd etiladi [3, 145–147].

Psixologik mexanizmlarning ikkinchisi — “Muammoli o‘qitish mexanizmi”, u o‘quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko‘ra, muammoni mustaqil idrok etish va hal etishga yo‘naltiradi. A.M. Matyushkin muammoli vaziyatni shaxsning intellektual faolligini rag‘batlantiruvchi psixologik holat sifatida talqin qiladi [24, 73–75]. Muammoli vaziyat idrok, xotira va tafakkur jarayonlarini integratsiyalashgan tarzda ishga tushiradi.

Jahon pedagogikasida J. Bruner muammoli o‘qitishni “kashfiyot orqali o‘rganish” konsepsiyasi bilan bog‘lab, o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol izlanish orqali o‘zlashtirishi lozimligini ta’kidlaydi [8, 89–92]. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashning mantiqiy va ijodiy tarkiblarini rivojlantiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilgan tadqiqotlar muammoli o‘qitish metodlari talabalarning analitik tafakkuri, muammoga mas’uliyatli yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi [4, 118–120].

Psixologik mexanizmlarning uchinchisi — “Refleksiya mexanizmi”, u tanqidiy fikrlashning ichki psixologik poydevori hisoblanadi. Refleksiya shaxsning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va ularni tuzatishga intilishi bilan bog‘liq. J. Flavell refleksiyani metakognitiv nazoratning muhim komponenti sifatida izohlaydi [12, 34–36].

A.V. Karpov refleksiyani shaxsning o‘z faoliyatiga nisbatan ongli yondashuvi sifatida izohlaydi va uning intellektual o‘shisdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [22, 57–60]. Refleksiya jarayonida emotsional va kognitiv komponentlar uyg‘unlashib, ichki nazorat mexanizmlari mustahkamlanadi.

O‘zbekistonlik olimlar refleksiv yondashuvni talabalarda tanqidiy tahlil qilish, o‘zini rivojlantirish va professional idrokni shakllantirishning muhim sharti sifatida belgilaydilar [15, 201–203].

“**Muloqot va hamkorlik mexanizmi**” psixologik vositalarning to‘rtinchisi bo‘lib, tanqidiy fikrlashning ijtimoiy-psixologik asosini tashkil etadi. K. Levin va A. Bandura tadqiqotlariga binoan, guruhiy muhokama va hamkorlik shaxsda ijtimoiy taqqoslash, empatiya va dalillarga asoslangan fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5, 66–68].

Vygotskiy nazariyasida ijtimoiy muloqot tafakkur rivojlanishining manbai sifatida ko‘riladi. Turli qarashlarning to‘qnashuvi o‘quvchini o‘z pozitsiyasini asoslashga va qayta baholashga undaydi [19, 271–273].

O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlarida jamoaviy ta’lim texnologiyalari tanqidiy tafakkur, ijtimoiy faollik va mas’uliyat hissini oshiruvchi omil sifatida baholanadi [1, 89–91].

Psixologik mexanizmlarning beshinchisi — “**Simulyatsiya va rol o‘yinlari mexanizmi**”. U o‘quvchilarni real hayotga yaqin sharoitlarda faoliyatga jalb qilib, qaror qabul qilish va tahlil qilish jarayonlarini rag‘batlantiradi. D. Kolbning tajribaviy o‘rganish nazariyasiga binoan, shaxs faol tajriba orqali bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi [13, 41–43].

Rol o‘yinlari muammoli vaziyatlarda tezkor, moslashuvchan va asosli tafakkurni shakllantiradi. MDH olimi N.F. Talyzina bu metodlarni intellektual operatsiyalarni avtomatlashtirish va mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida ta’riflaydi [27, 112–114].

O‘zbekiston ta’lim amaliyotida simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarning tanqidiy tahlil qilish, kasbiy qaror qabul qilish va mas’uliyat hissini oshirishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda [16, 156–158].

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik vositalar — savol-javob va muhokama, muammoli o'qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik hamda simulyatsiya va rol o'yinlari mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda pedagogik-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash bir martalik yoki tasodifiy shakllanadigan qobiliyat bo'lmay, balki o'zaro bog'langan psixologik mexanizmlar tizimi orqali izchil rivojlanadigan murakkab kognitiv jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar B. Blum, J. Dyui, L.S. Vygotskiy, J. Bruner, J. Flavell kabi jahon va MDH olimlarining nazariy qarashlari bilan uyg'un ekanligini ko'rsatdi. Xususan, savol-javob va muhokama mexanizmi orqali yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarni faollashtirish mumkinligi haqidagi fikrlar ushbu tadqiqotda ham tasdiqlandi. "Nega?", "Qanday?" kabi muammoli savollar o'quvchilarning bilim faolligini oshiribgina qolmay, ularning o'z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilish qobiliyatini ham mustahkamlaydi. Bu esa metakognitiv nazoratning tanqidiy fikrlashdagi o'rni muhim ekanligini yana bir bor asoslaydi.

Muammoli o'qitish mexanizmi tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchini intellektual murakkablikka jalb qilish tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali vositasidir. A.M. Matyushkin va J. Bruner tomonidan ilgari surilgan muammoli vaziyat nazariyasi pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. O'quvchilar muammoli sharoitda tayyor bilimlarga tayanmay, mantiqiy tahlil, dalillash va muqobil yechimlar ishlab chiqishga intiladi, bu esa tanqidiy fikrlashning mantiqiy va ijodiy jihatlarini rivojlantiradi.

Refleksiya mexanizmi tahlili tanqidiy fikrlashning ichki psixologik poydevori sifatida alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. J. Flavell va A.V. Karpov tadqiqotlariga muvofiq, refleksiya shaxsning o'z bilish faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantiradi, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, reflektiv yondashuv yetarli darajada tashkil etilmagan ta'lim muhitida tanqidiy fikrlashning to'liq shakllanishi qiyin kechadi.

Muloqot va hamkorlik mexanizmlarining tahlili tanqidiy fikrlashning ijtimoiy-psixologik mohiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Vygotskiy ta'kidlaganidek, ijtimoiy o'zaro ta'sir tafakkur rivojlanishining manbai sifatida namoyon bo'ladi. Guruhiy muhokamalar jarayonida turli fikrlarning to'qnashuvi o'quvchini o'z pozitsiyasini qayta baholashga, dalillarni taqqoslash va asoslashga majbur qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning muhim jihatlari — mantiqiy izchillik va dalillash madaniyatini shakllantiradi.

Simulyatsiya va rol o'yinlari mexanizmi bo'yicha tahlillar tanqidiy fikrlashni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi. D. Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasiga muvofiq, faol amaliy tajriba orqali egallangan bilimlar barqaror va amaliyotga mos bo'ladi. Rol o'yinlari jarayonida o'quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga majbur bo'lib, bu tanqidiy fikrlashning amaliy jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar zamonaviy pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash shaxsning yuqori darajadagi kognitiv faoliyati bo'lib, u tayyor bilimlarni passiv qabul qilishdan ko'ra, ularni tahlil qilish, baholash, qayta tuzish va muqobil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Aniqlandiki, tanqidiy fikrlash spontan shakllanmaydi, balki maqsadli tashkil etilgan ta'lim jarayoni va o'zaro uzviy bog'liq psixologik mexanizmlar orqali rivojlanadi. Jumladan, savol-javob va muhokama mexanizmi yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini faollashtirsa, muammoli o'qitish mexanizmi o'quvchilarning intellektual faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Refleksiya mexanizmi esa shaxsning o'z fikrlash jarayonini ongli ravishda nazorat qilishini ta'minlab, tanqidiy baholash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun psixologik asos yaratadi.

Shuningdek, muloqot va hamkorlik mexanizmi tanqidiy fikrlashning ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochib bergan holda, dalillash, bahs yuritish va muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Simulyatsiya va rol o'yinlari mexanizmi esa real hayotga yaqin vaziyatlarda bilimlarni qo'llash orqali tanqidiy fikrlashning amaliy jihatdan mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida belgilangan tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga doir ustuvor vazifalar bilan uzviy uyg'un ekanligi hamda mazkur psixologik mexanizmlarni ta'lim jarayoniga ilmiy asosda joriy etish pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тишабаева Л. А. Развитие ремесла в Узбекистане //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 110-111.
2. Тишабаева Л. А. Роль трудов учёных-мыслителей востока в духовном возрождении общества //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 13 (35). – С. 34-35.
3. Тишабаева Л. А. Эффективное применение педагогических и образовательных технологий на занятиях //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 3 (44). – С. 54-56.
4. Тишабаева Л. А. Возможности развития туризма в городе Кувасай Республики Узбекистан //Научные исследования. – 2018. – №. 6 (25). – С. 25-27.
5. Тишабаева Л. А. Изучение истории в воспитании молодежи Узбекистана-один из важнейших вопросов //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 7 (19). – С. 84-85.
6. Rajabov M. J., Rajabova X. X. Self-consciousness of students in social and psychological mechanisms //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 176-179.
7. Khusanboyevna R. K. INNOVATIVE CRITERIA AND LEVELS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Т. 5. – №. 2. – С. 300-305.
8. Khusanboyevna R. K. THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS IN INFORMATION TECHNOLOGY WITHIN THE MODERN EDUCATIONAL SYSTEM //Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice. – 2025. – Т. 1. – №. 2. – С. 169-177.
9. Xusanboyevna R. X. SCIENTIFIC APPROACHES TO PEDAGOGICAL COMPETENCE IN DEVELOPED COUNTRIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 12. – С. 1148-1156.

10. Rajabova X. X., Dekhkanova M. B. TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING PIROVARD NATIJASI SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. ТМА Conference. – С. 251-255.
11. Эргашев У. А. ПРИОРИТЕТ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1573-1575.
12. Эргашев У. А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 785-788.
13. Adhamovich E. U. AESTHETIC AND ECOLOGICAL ATTITUDE OF THE PERSON TO NATURE CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF ITS PROPERTIES //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 42. – С. 543-546.
14. Adhamovich E. U. PROBLEMS OF PATRIOTIC SENSE FORMATION IN YOUTH //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 42. – С. 209-212.
15. Adhamovich E. U. THE ROLE OF PERSONALITY EDUCATION IN PERSONAL SOCIAL ACTIVITY //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 107-111
16. Muratovna O. Z. THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING THE TRADITIONS OF FOLK PEDAGOGY IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE NATIONAL SPIRIT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 10. – С. 74-77.
17. Madaliev, M., Usmonov, M., Otajonov, J., Bilolov, I., Otakhanova, Z., Rajabova, K., & Israilov, S. (2024). The effect of slip on the development of flow separation due to a bump in a channel based on a two-fluid turbulence model. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 06003). EDP Sciences.
18. Qodirov, X., Rajabova, X., Abdullajonova, N., Otaxonova, Z., Aliev, I., Abdurakhmon, S., & Sayitov, S. (2024). On analytical study of heat transfer phenomenon in special-shape soldering iron. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 05006). EDP Sciences.
19. Zamiraxon O., Madinabonu S. MECHANISMS FOR ACTIVATING FEMALE STUDENTS'ENGAGEMENT IN DEVELOPING LANGUAGE LEARNING SKILLS THROUGH INTERACTIVE METHODS BASED ON FOLK PEDAGOGY //Universum: технические науки. – 2025. – Т. 7. – №. 6 (135). – С. 28-31.
20. Madaliev, M., Mamatov, A., Otajonov, J., Kadyrov, K., Bilolov, I., Otakhanova, Z., & Muminov, K. (2024). Numerical study of flow after NASA 4412 aerodynamic profile based on the SST turbulence model. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 06006). EDP Sciences.
21. Boykuziyeva R. K. Theoretical and practical issues of researching the characteristics of the formation of social tolerance in students //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – Т. 18. – С. 14-19.
22. Бойкузиева Р., Тишабаева Л. Ахборотлар ёрдамида туристик оқимни ва турмахсулотларни етказиб беришни бошқариш //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 31-37.
23. Юсупов А., Бойкузиева Р. УГРОЗЫ ГЛОБАЛИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В МИРЕ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ И СПОСОБЫ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1613-1617.

24. Karimovna B. R. Modern Problems of Attracting Students to the National Cultural Heritage //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2023. – Т. 27. – С. 32-35.
25. Boyqo'zieva R. MILLIY MADANIY MEROSIMIZNI O 'RGANISHDA TALABALAR INTELLEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY JARAYONLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 46-46.
26. Ўринбоева М. С. ТАБИАТГА ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТЛАР ТАРИХИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1554-1557.
27. Sodikovna, O. M. (2023). Ethical Aspects of Ecological Relations. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(1), 131-134. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/EWDR3>
28. Maftuna O. MILLIY ETOSFERA VA EKOLOGIK MADANIYAT //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 197-203
29. Ўринбоева М. С., Расулова Ш. А. ЭКОЛОГИК БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА АХЛОҚНИНГ ФУНКЦИЯЛАРИ //ТОШКЕНТ-2021. – С. 104.
30. Уринбаева М. С. ТАБИАТГА ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТ ВА МАДАНИЯТ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 506-508.
31. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1249-1257.
32. Rajabov M. J. MANIPULATION AS PROCESS DECISION MAKING IN ADVERTISING //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 358-360.
33. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1249-1257.
34. Ражабов М. Ж. Психолингвистик жараёнда манипуляциянинг роли //Инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
35. Jumaboevich R. M. Black Three in Personal Psychological Characteristics or Maciavelism, Psychopathy and Narsism. – 2022.
36. Atamukhamedova M. R., Eminov A. Y., Boratov O. M. Changes in the respiratory and blood system as a result of physical exercises //CHANGES. – 2019. – Т. 10. – С. 102019.
37. Yigitalievch E. A. THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS FOR HUMAN HEALTH AND YOUTH DEVELOPMENT //International Journal of Pedagogics. – 2022. – Т. 2. – №. 05. – С. 26-29.
38. Mikheeva A. I. HEALTH BENEFITS OF REGULAR PHYSICAL ACTIVITY: A LITERATURE REVIEW //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 467-474.
39. Mikheeva A. I. К НЕКОТОРЫМ ПРОБЛЕМАМ ВОСПИТАНИЯ В ХОДЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 9. – С. 90-97.
40. Mikheeva A. I. PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL ACTIVITY IN MODERN LIFESTYLE //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 31-39.
41. Mikheeva A. TEACHING SKILL OF THE TEACHER AND ITS FORMATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 8. – С. 323-328.

42. Михеева А. И. ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩИХ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ // Доктор экономических наук, профессор ЮВ Федорова Доктор филологических наук, профессор АА Зарайский Доктор социологических наук, доцент ТВ Смирнова. – 2019. – С. 47.
43. Abduxalim o'g'li, A. I. (2025, September). FARG 'ONA VODIY VILOYATLARIDA MEHNAT BOZORI: MAVJUD HOLAT VA MUAMMOLAR. In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 2, pp. 451-454).
44. Abdukhamidov, I. (2021, June). PROCESSES OF POPULATION MIGRATION IN FERGANA REGION. In *Конференции*. – 232 с.

